



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- yil yanvar-noyabr



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-noyabr)



**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi -  
60,1%**



**Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi –  
6 002,8  
ming so'm**




**Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi – 62,0%**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(1- dekabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar  
(yanvar-noyabr)




Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- dekabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-noyabr)




## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-noyabr)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2023- yil yanvar-noyabr)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-noyabr)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>8 930,4</b>	<b>100,0</b>	<b>110,2</b>
Jizzax sh.	3 838,0	43,0	113,8
tumanlar:			
Arnasoy	142,3	1,6	104,3
Baxmal	559,8	6,3	104,9
G'allaorol	725,0	8,1	109,1
Sharof Rashidov	1195,6	13,4	110,2
Do'stlik	281,6	3,2	105,4
Zomin	699,0	7,8	107,4
Zarbdor	312,4	3,5	103,8
Zafarobod	153,0	1,7	102,9
Mirzacho'l	242,9	2,7	107,7
Paxtakor	325,1	3,6	117,2
Forish	392,2	4,4	105,3
Yangiobod	63,5	0,7	88,6

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-noyabr)

Hajmi, ming so'mda      O'sish sur'ati




## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **60,1** foizni, shu jumladan, **21,3** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-noyabr)





## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-noyabr)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>8 930,4</b>	<b>100,0</b>	<b>110,2</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	437,6	4,9	119,3
Moliyaviy xizmatlar	2 392,3	26,8	112,7
Transport xizmatlari	1 271,7	14,2	108,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 222,2	13,7	105,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	320,7	3,6	108,9
Savdo xizmatlari	2 512,6	28,1	106,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	161,4	1,8	103,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	401,3	4,5	106,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	168,1	1,9	105,3
Ijara xizmatlari	146,0	1,6	80,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	218,5	2,5	104,5
Shaxsiy xizmatlar	254,4	2,9	104,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115,1	1,3	104,2
Boshqa xizmatlar	530,7	5,9	152,1


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)



## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-noyabr)



## Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-noyabr)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi 69,7 foizni yoki 1 666,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Paxtakor tumanida yuqori o'sish sur'ati 128,0 % ni tashkil etdi.

## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-noyabr)




Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,1%**.

Sharof Rashidov shahrida transport xizmatlari hajmi **495,2** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **114,0%** ni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-noyabr)





<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda    ⚙️ O'sishi

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-noyabr)

2023- yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 222,2** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,7 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2023- yil yanvar-noyabr)



## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-noyabr)

55,9 %

Yuk tashish

44,1%

Yo'lovchi tashish

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2023- yilning yanvar-noyabr** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **79,6** foizni tashkil etdi.




## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-noyabr)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-noyabr)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-noyabr** oylarida ularning ulushi **86,9** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-noyabr)



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-noyabr)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd.so'mda

● O'sishi

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **74,7 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-noyabr)




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)


**2023- yilning yanvar-noyabr**

o'ylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi.

Ularning ulushi **65,4** foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-noyabr)








# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-noyabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **96,5** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2023- yil yanvar-noyabr)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda    ● O'sishi




# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

**2023- yilning yanvar-noyabr** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **89,3 foiz**.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-noyabr)



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-noyabr)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda    O'sishi



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-noyabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

O'sish (kamayishi)

## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-noyabr, mlrd. so'mda)



**2019- yilning yanvar-noyabr**ga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **53,9** mlrd. so'mga oshib, **146,0** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-noyabr** oylarida avtomobillar va yengil avto-transport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **73,1 %** ni tashkil etdi.




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-noyabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **20,8** foizini tashkil etadi.


## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2023- yil yanvar-noyabr)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-noyabr, mln. so'mda)



**2019- yilning yanvar-noyabr** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **36,7** mlrd. so'mga oshib, **115,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahri ulushi **90,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 72-221-51-27

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.